

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ raisiga birinchi o‘rinbosar tayinlandi

// 01.08.2023

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/dkz-normuratov-tayinlov>



Bahodir Baxtiyorovich Normuratov “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ boshqaruvi raisining birinchi o‘rinbosari v.b lavozimiga tayinlandi.

Tayinlov munosabati bilan o‘tkazilgan tadbirda “O‘zkimyosanoat” AJ Texnik jihatdan tartibga solish va ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish departamenti boshlig‘i R.Ayxodjayev, "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ boshqaruvi raisi v.b T.Zaripov, boshqaruv raisi o‘rinbosarlari hamda tarkibiy bo‘linma rahbarlari ishtirok etishdi.

Ma’lumot o‘rnida aytib o‘tamiz, Bahodir Normuratov "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ Bosh texnologi, “Toshkent kimyo texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti” MChJ marketing va sotish bo‘yicha direktor o‘rinbosari kabi lavozimlarida faoliyat yuritgan.

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ Matbuot xizmati

